

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni tahlil qilingan. Nutq madaniyati pedagogik mahoratning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim jarayonida samarali muloqot o‘rnatish, fikrni aniq, mantiqiy va madaniyatli bayon qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Maqolada kommunikativ yondashuv, raqamli texnologiyalardan foydalanish, amaliy mashg‘ulotlar va aks ettiruvchi usullar orqali o‘qituvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, bo‘lajak o‘qituvchi, innovatsion yondashuv, kommunikativ kompetensiya, axborot texnologiyalari, refleksiya.

Аннотация. В статье анализируется роль инновационных подходов в развитии речевой культуры будущих учителей. Культура речи является неотъемлемой частью педагогического мастерства и включает в себя умение эффективно выстраивать коммуникацию в образовательном процессе, ясно, логично и культурно излагать свои мысли. В статье рассматриваются механизмы формирования речевой компетентности учителей посредством коммуникативного подхода, использования цифровых технологий, практических упражнений и рефлексивных методов.

Ключевые слова: речевая культура, будущий учитель, инновационный подход, коммуникативная компетентность, информационные технологии, рефлексия.

Annotation. This article analyzes the role of innovative approaches in the development of speech culture of future teachers. Speech culture is an integral part of pedagogical skills and includes the ability to establish effective communication in the educational process, to express thoughts clearly, logically and culturally. The article examines the mechanisms for forming speech competence of teachers through a communicative approach, the use of digital technologies, practical exercises and reflective methods.

Key words: speech culture, future teacher, innovative approach, communicative competence, information technologies, reflection.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchidan nafaqat chuqur kasbiy bilimlar, balki yuksak kommunikativ madaniyat, ijtimoiy-hissiy savodxonlik va muloqotga tayyorlik talab qilinadi. Shunday vaziyatda nutq madaniyatini rivojlantirish pedagogik tayyorgarlik jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Nutq madaniyati – bu o‘qituvchining o‘z fikrini ravon, mantiqiy, madaniyatli, grammatik jihatdan to‘g‘ri va pedagogik maqsadga muvofiq tarzda ifodalash qobiliyatidir.

An'anaviy yondashuvlarda nutq madaniyatiga bo'lgan e'tibor grammatik me'yorlar, diktantlar, matn tahlili bilan cheklangan. Biroq bu metodlar zamonaviy pedagogik vazifalarni to'liq qamrab olmaydi. Shuning uchun innovatsion va interaktiv yondashuvlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Nutq madaniyati tushunchasi tilshunoslik, psixolingvistika va pedagogika fanlari tutashgan nuqtada shakllanadi. L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, tafakkur va nutq o'zaro bog'liq va biri ikkinchisini rivojlantiradi. M.M. Baxtin esa nutq jarayonining dialogik mohiyatini ta'kidlab, ta'limda muloqotga asoslangan yondashuv muhimligini ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchi uchun nutq madaniyati:

- dars mazmunini tushunarli yetkazish,
- o'quvchilar bilan ijobiy muloqot o'rnatish,
- fikr almashinuvi va tahlilni olib borish,
- bahs va munozaralarda ishtirok etish,
- axborotni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri ifodalash kabi ko'nikmalarni nazarda tutadi [1].

Tadqiqotning metodologik asosini bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini innovatsion yondashuvlar orqali rivojlantirish jarayonini tizimli tahlil qilish tashkil etdi. Tadqiqot aralash (miqdoriy va sifatli) metodlar asosida olib borildi. Uning asosiy maqsadi – nutq madaniyati darajasini aniqlash, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot ikki asosiy bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqich – diagnostik bosqich bo'lib, unda talabalar nutqiy tayyorgarlik darajasi aniqlab olindi; ikkinchi bosqich – tajriba-sinov bosqichi bo'lib, unda innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'tkazildi. Unda Farg'ona, Toshkent va Chirchiq shaharlaridagi pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 3–4-kursning jami 56 nafar talabasi ishtirok etdi [2].

Ma'lumotlar quyidagi metodlar orqali to'plandi: so'rovnomalar, suhbatlar, audio-video yozuvlar, reflektiv kundaliklar va kuzatuv varaqalari. So'rovnomalar orqali talabalar o'z nutqiy malakalari, muloqotdagi ishonch darajasi va psixologik to'siqlari haqida ma'lumot berdi. Reflektiv kundaliklar orqali esa har bir ishtirokchi o'z nutqiy faolligi, qiyinchiliklari va yutuqlari haqida haftalik tahlillar olib bordi.

Eksperiment davomida talabalarga nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan quyidagi innovatsion metodlar qo'llanildi: digital storytelling (raqamli hikoyalash), mikro-o'qitish (microteaching), ro'l o'ynash (role play), Socratik doira

shaklidagi bahs-munozaralar, o‘zaro baholash (peer review) va refleksiya. Mashg‘ulotlar 10 hafta davomida olib borildi va har bir bosqichda oraliq baholashlar amalga oshirildi [3].

Ma’lumotlar tahlilida sifatli ma’lumotlar tematik kontent tahlili orqali, miqdoriy ma’lumotlar esa deskriptiv statistika yordamida o‘rganildi. Eksperiment oldi va keyingi holatlar taqqoslab baholandi, o‘zgarishlar son jihatdan va sifat jihatdan aniqlab borildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq madaniyatini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qilgan. Eksperimentdan oldingi va keyingi tahlillar orasidagi farq quyidagi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ldi:

Birinchiidan, talabalar nutqidagi grammatik va fonetik xatolar kamaydi. Eksperimentdan oldin talabalar chiqishlarida grammatik xatolarga yo‘l qo‘yish holatlari 54 foizni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 18 foizgacha kamaydi. Shuningdek, takrorlash, pauza, to‘xtab qolish kabi nutqiy to‘siqlar 40 foizdan 11 foizgacha kamaygani kuzatildi [3].

Ikkinchiidan, talabalar fikrni mantiqiy bayon qilishda ancha faollashdi. Taqdimotlar, yozma mashqlar va mikro-o‘qitishlar tahliliga ko‘ra, ishtirokchilarning 82 foizi fikr tuzilmasiga ongli yondashgan, ya‘ni kirish, asosiy qism va xulosadan iborat aniq struktura yaratishga harakat qilgan. Bu holat reflektiv kundaliklarda ham o‘z aksini topgan – talabalar nutqiy xatolarini tahlil qilgan va ularni takomillashtirishga harakat qilgan.

Uchinchiidan, kommunikativ ishtirok va muloqotda faol bo‘lish ko‘nikmasi rivojlangan. Eksperimentdan oldin seminar va munozaralarda faol qatnashgan talabalar soni 28 foiz atrofida bo‘lgan bo‘lsa, eksperiment yakunida bu ko‘rsatkich 72 foizgacha ko‘tarilgan. Bu esa, innovatsion metodlarning talabalar ishtirokiga ijobiy ta‘siri borligini ko‘rsatadi [4].

To‘rtinchiidan, so‘rovnoma natijalari talabalar nutq madaniyati borasida o‘zgarishlarni ijobiy baholaganini ko‘rsatdi. Talabalar 85 foiz holatda innovatsion metodlar nutqiy malakalarini rivojlantirishga yordam berganini bildirgan. 78 foiz talaba esa ilgari muloqotda o‘zini erkin his qilmasligini, lekin tajribadan so‘ng muloqotga tayyorlik darajasi va ishonchi ortganini tan olgan.

Shuningdek, audio-video yozuvlar asosida tahlil qilingan yakuniy chiqishlarda talaffuz, ohangdorlik, intonatsiya va ifoda aniqligi ancha yuqori darajaga ko‘tarilgan. Bu esa innovatsion yondashuvlar orqali nutqiy ifoda madaniyatini shakllantirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutq madaniyati nafaqat

o‘qituvchining o‘z fikrini grammatik va uslubiy jihatdan to‘g‘ri ifoda etish ko‘nikmasi, balki uning kasbiy saviyasi, estetik didi va pedagogik madaniyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar va amaliy mashg‘ulotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion yondashuvlar – ya’ni digital vositalar, ro‘l o‘ynash, mikro-o‘qitish, reflektiv yozuvlar, Socratic suhbatlar kabi metodlar – talabalar nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tajribada ishtirok etgan talabalar nutqiy faollik, mantiqiy fikrlash, o‘zini aniq va ifodali bayon qilish, muloqotda madaniyatli bo‘lish, auditoriyani e’tiborini saqlab qolish kabi ko‘nikmalarni egallashga erishdilar. Ayniqsa, o‘zaro baholash va reflektiv metodlar orqali ular o‘z nutqiy kamchiliklarini anglab, mustaqil tarzda takomillashtirishga harakat qildilar.

XULOSA

Innovatsion yondashuvlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning nutqiy kompetensiyasini oshirishi bilan birga, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, mustaqil ishlashga, tahlil qilishga, o‘z ustida ishlashga yo‘naltiradi. Bu esa, kelajakdagi faol pedagoglar uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omildir.

Shu boisdan, pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida “Nutq madaniyati” fanini interaktiv, amaliy va innovatsion uslublar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, pedagogik kadrlar tayyorlashda kommunikativ yondashuvlarni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, darsdan tashqari nutqiy muhit yaratish kabi yo‘nalishlar istiqbolli va dolzarb bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotskiy L.S. (2001). Tafakkur va nutq. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Baxtin M.M. (1986). Nutq janrlari nazariyasi. Moskva: Nauka.
3. Richards J.C., Rodgers T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
4. Tukhtaeva M.Sh. (2023). The Concept of Future Pedagogical Psychologists in the Development of Speech Culture and the Role of a Communicative Approach. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, Vol. 1, Issue 2, pp. 232–235.
5. Нуриев, К. К., Рахматов, О., Кадирова, Р. С., & Рахматов, О. О. (2015). Биоконверсия органических отходов растительного происхождения в условиях Узбекистана. In Проблемы рекультивации отходов быта, промышленного и сельскохозяйственного производства (pp. 468-470).